



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
XIZMATLAR SOHASINING
ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-dekabr


Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globalashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari


(2024- yil yanvar-dekabr)

73,2




Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi, % da

22 017,6




Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'mda

57,0




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da




Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1-yanvar holatiga ko'ra)




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(yanvar-dekabr)



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1-yanvar holatiga ko'ra)

2025- y.

68,7




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2021- y.



60,1

Soni, birlikda



Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-dekabr)


2024- y.

66,4



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da

Yillar




57,5



2020- y.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hisssasi

(2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2023- yili hajmi va 2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda shakllantirilgan.



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-dekabr)

Hududlar nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	818 428,3	100,0	112,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	28 820,8	3,5	110,6
viloyatlar:			
Andijon	41 807,5	5,1	113,1
Buxoro	34 495,1	4,2	111,2
Jizzax	20 069,5	2,5	113,8
Qashqadaryo	43 255,9	5,3	110,9
Navoiy	20 055,6	2,4	112,1
Namangan	43 090,6	5,3	112,3
Samarqand	58 875,7	7,2	114,1
Surxondaryo	28 505,9	3,5	110,9
Sirdaryo	11 609,1	1,4	112,2
Toshkent	56 317,9	6,9	112,8
Farg'ona	55 200,7	6,7	112,3
Xorazm	28 262,0	3,5	112,0
Toshkent sh.	298 825,6	36,5	116,8

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)

■ Hajmi, ming so'mda
● O'sishi, % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-dekabr)

■ Hajmi, ming so'mda
◆ O'sish sur'ati, % da



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **57,0** foizni, shu jumladan, **36,9** foizini kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-dekabr)





Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-dekabr)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	818 428,3	100,0	112,9
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	56 174,2	6,9	125,8
Moliyaviy xizmatlar	135 509,5	16,5	120,6
Transport xizmatlari	145 124,4	17,7	108,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	72 604,7	8,9	112,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	183 314,5	22,4	110,6
Savdo xizmatlari	149 599,8	18,3	111,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	20 633,1	2,5	113,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	30 036,5	3,7	113,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	15 778,7	1,9	109,4
Ijara xizmatlari	9 707,6	1,2	105,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	11 848,2	1,4	112,3
Shaxsiy xizmatlar	15 462,0	1,9	109,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	11 200,6	1,4	103,9
Boshqa xizmatlar	34 039,2	4,2	107,9



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)¹⁾



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlarning umumiy hajmida (yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **22,4** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **96,0** %.

Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi, % da

Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining yarmidan ziyod qismini, ya'ni **54,3 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)



Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Toshkent shahri	53 421,7	+7,0
Toshkent	14 439,3	+16,1
Farg'ona	11 091,7	+12,1
Samarqand	10 590,6	+17,7
Andijon	8 808,3	+12,6
Qashqadaryo	8 113,5	+12,3
Namangan	8 110,9	+13,7
Buxoro	7 639,9	+12,2
Surxondaryo	7 358,2	+14,8
Jizzax	5 077,2	+25,5
Qoraqalpog'iston Resp.	4 546,6	+17,9
Navoiy	4 237,5	+10,4
Xorazm	4 136,4	+12,8
Sirdaryo	1 999,7	+11,9

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **50,0** foiz.

Toshkent shahrida transport xizmatlari hajmi **28 551,6** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlarining o'sishi **21,0** foiz darajasida qayd etildi.

Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **72 604,7** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **8,9 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Toshkent shahri	11 946,6	+8,5
Toshkent	9 505,9	+14,1
Samarqand	8 723,4	+15,1
Farg'ona	6 676,5	+8,1
Andijon	5 973,4	+16,8
Qashqadaryo	5 347,3	+11,4
Buxoro	5 174,4	+10,3
Namangan	4 355,4	+18,3
Xorazm	3 899,3	+8,5
Surxondaryo	2 948,6	+11,5
Qoraqalpog'iston Resp.	2 582,8	+23,5
Navoiy	2 405,5	+17,9
Jizzax	2 014,7	+10,1
Sirdaryo	1 047,4	+20,1



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **57,3** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **46,1 %**.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	79 083,9
Farg'ona	7 170,3
Andijon	5 717,4
Samarqand	5 505,9
Toshkent	5 451,2
Buxoro	4 406,1
Qashqadaryo	4 405,1
Xorazm	4 048,3
Surxondaryo	3 844,2
Qoraqalpog'iston Resp.	3 516,0
Namangan	3 514,0
Navoiy	3 407,9
Jizzax	3 029,4
Sirdaryo	2 409,8

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-dekabr, % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-dekabrda 87,2** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **58,4** foizni yoki **79 083,9** mlrd so'mni tashkil etdi. **2023- yilga** nisbatan Farg'ona viloyatida yuqori o'sish sur'ati **126,7** foiz darajasida qayd etildi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni kompyuter dasturlashtirish xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-dekabr** oylaridagi ulushi **40,7 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)

Toshkent shahri	40 559,5	+29,1
Farg'ona	2 039,2	+13,0
Samarqand	2 013,4	+24,8
Toshkent	1 713,0	+17,3
Andijon	1 396,3	+18,0
Qashqadaryo	1 300,7	+13,0
Namangan	1 240,1	+15,9
Surxondaryo	1 094,7	+16,5
Xorazm	1 040,6	+34,3
Qoraqalpog'iston Resp.	997,9	+20,7
Buxoro	990,5	+16,6
Jizzax	642,9	+25,0
Navoiy	634,9	+17,9
Sirdaryo	453,5	+11,8

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

◆ O'sishi, % da

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlarining dinamikasi

(yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar hajmi **22 866,1** mlrd so'mga yetdi.

Hududlar bo'yicha kompyuter dasturlashtirish xizmatlari


(2024-yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	20 821,5
Farg'ona	365,4
Samarqand	337,7
Toshkent	210,9
Surxondaryo	179,0
Xorazm	159,6
Namangan	140,7
Qashqadaryo	132,0
Andijon	122,1
Buxoro	95,9
Jizzax	90,9
Qoraqalpog'iston Resp.	89,0
Navoiy	86,2
Sirdaryo	35,2

2024 yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar bo'yicha eng katta xizmatlar hajmi qayd etildi. Mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **20 821,5** mlrd so'mni yoki kompyuter dasturlashtirish xizmatlari umumiy hajmining **91,1** foizini tashkil etdi.

Telekommunikatsiya xizmatlarining dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)

2024- yil yanvar-dekabr oyi yakunlariga ko'ra telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **20 509,1** mlrd so'mga yetdi va 2023- yilga nisbatan o'sish **13,4 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)

Toshkent shahri	8 734,4	+11,2
Farg'ona	1 469,9	+11,6
Samarqand	1 447,9	+16,1
Andijon	1 165,9	+14,5
Toshkent	1 102,5	+16,9
Qashqadaryo	1 046,6	+16,2
Namangan	999,7	+15,3
Surxondaryo	816,6	+12,1
Buxoro	816,0	+16,0
Qoraqalpog'iston Resp.	756,2	+18,1
Xorazm	753,7	+17,4
Navoiy	497,4	+15,1
Jizzax	484,9	+13,7
Sirdaryo	386,2	+12,7

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

⊗ O'sishi, % da



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024- yil yanvar-dekabr)

Muqobil to'plam ko'rsatkichlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	58 532,8	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	52 520,6	89,7
shu jumladan:		
Dasturiy ta'minotni nashr qilish bo'yicha xizmatlar	3 176,3	6,0
Telekommunikatsiya xizmatlari	20 509,1	39,1
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	22 866,1	43,5
Ma'lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo'yicha xizmatlar va o'zaro bog'liq xizmatlar; web-portallar	3 610,5	6,9
Kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2 358,6	4,5
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	6 012,2	10,3
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa nashirlik xizmatlari	878,0	14,6
Kino-videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	465,6	7,7
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	1 370,9	22,8
Boshqa axborot xizmatlari	3 297,7	54,9

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-dekabr)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-dekabr** oylaridagi ulushi **50,3** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	14 547,7
Samarqand	2 343,5
Farg'ona	1 702,4
Buxoro	1 657,6
Toshkent	1 523,6
Namangan	1 480,3
Andijon	1 461,9
Qashqadaryo	1 165,7
Surxondaryo	966,0
Qoraqalpog'iston Resp.	940,5
Xorazm	809,5
Navoiy	606,6
Jizzax	527,8
Sirdaryo	303,4



Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Toshkent shahriga to'g'ri keladi. **2024-yilning yanvar-dekabr** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **14 547,7** mlrd so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **48,4** foizini tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-dekabr** oylaridagi ulushi **52,7** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **30,7** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **16,6** foizni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahri	7 572,5	110,5
Toshkent	1 577,4	107,6
Samarqand	1 106,0	113,4
Farg'ona	997,9	100,2
Namangan	735,8	110,4
Andijon	681,9	113,6
Buxoro	564,0	110,4
Qashqadaryo	528,3	109,4
Xorazm	476,0	109,2
Surxondaryo	383,7	105,1
Jizzax	357,7	104,8
Navoiy	268,8	103,5
Sirdaryo	266,4	106,9
Qoraqalpog'iston Resp.	262,3	114,5

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar-dekabr) ¹⁾



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **94,2** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda 🏠 O'sishi, % da

Ijara xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ijara xizmatlari hajmi **9 707,6** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **53,6** foizni tashkil etadi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi


(yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



2024-yil yanvar-dekabr oylarida huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **2 167,9** mlrd so'mga yetdi.

Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



Ushbu xizmatlar hajmining salmoqli qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keldi, uning huquq va buxgalterlik hisobi sohasida ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmidagi ulushi **84,3** foiz yoki **1 827,3** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilga nisbatan mazkur hudud bo'yicha huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **381,4** mlrd so'mga yoki **16,3** foizga oshdi.

Aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr, ming so'mda)

Yuridik va buxgalteriya xizmatlari zamonaviy biznes va jismoniy shaxslar hayotida asosiy rol o'ynaydi, huquqiy himoya va moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi.



Hududlar kesimida aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr, ming so'mda)



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan huquq va buxgalteriya hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **593,9** ming so'm darajasiga yetdi. Shuningdek, Navoiy (**23,4** ming so'm) va Toshkent (**17,1** ming so'm) viloyatlarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Surxondaryo viloyatida esa ushbu ko'rsatkich o'rtacha **2,9** ming so'm-ni tashkil etdi.

Yuridik xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida yuridik xizmatlarning huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi jami xizmatlar hajmidagi ulushi **30,4 %** yoki **659,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida yuridik xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



Hududlar orasida ushbu xizmat turiga Toshkent shahrida talab yuqori. Ushbu hududda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **492,9** mlrd so'mni yoki yuridik xizmatlar jami hajmining **74,8** foizini tashkil etdi.

Buning sababi shundaki, shaharlarda aholi zichligi, ko'proq tijorat va fuqarolik operatsiyalari va huquqiy nizolar sonining ko'payishi tufayli yuridik xizmatlarga talab sezilarli darajada oshadi.

Aholi jon boshiga yuridik xizmatlar dinamikasi


(yanvar-dekabr, ming so'mda)

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi o'rtacha **17,7** ming so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar


(2024- yil yanvar-dekabr, ming so'mda)



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi **160,2** ming so'mga yetdi. Shu bilan birga, Xorazm (**10,9** ming so'm) va Toshkent (**7,5** ming so'm) viloyatlarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Surxondaryo viloyatida esa yuridik xizmatlar hajmi o'rtacha **2,0** ming so'mni tashkil etdi.


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi

(yanvar-dekabr) ¹⁾



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **30,4** foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ◆ O'sishi, % da

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	6 845,5
Toshkent	770,2
Navoiy	746,2
Samarqand	536,5
Qashqadaryo	321,7
Farg'ona	272,3
Surxondaryo	265,4
Andijon	247,8
Qoraqalpog'iston Resp.	247,6
Xorazm	239,7
Namangan	233,2
Buxoro	220,3
Jizzax	186,2
Sirdaryo	68,0



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **11 200,6** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **61,1** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksesuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

Yuridik xizmatlar hajmi fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.